

**TALIS TOPSHIRIQLAR DORASIDA TUZILGAN
TOPSHIRIQLARDAN NAMUNALAR**

Jalolova Pokiza Muzaffarovna

Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti

“Pedagogika” kafedrası

professori v.b., pedagogika fanlari doktori (DSc), ilmiy rahbar

Turayev Ziyavutdin O‘ktamxonovich

Shahrisabz davlat pedagogika institute

“Matematika va ta’limda axborot texnologiyalari” kafedrası o‘qituvchisi

e-mail: torayevziyovuddin6@gmail.com

Norova Dilobar Baxromovna

Shahrisabz davlat pedagogika institute

Pedagogika fakulteti, “Matematika va informatika” yo‘nalishi talabasi

e-mail: norovadilobar3@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalqaro miqyosda tan olingan TALIS tadqiqoti doirasida ishlab chiqilgan topshiriqlarning tahlili, ularning didaktik yo‘nalishlari, milliy ta’lim tizimiga moslashuv darajasi va O‘zbekistondagi amaliy qo‘llanilish holatlari o‘rganilgan. Maqola xalqaro standartlar va o‘zbek pedagogikasi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot asosida o‘qituvchilarning professionallik darajasini baholashga xizmat qiluvchi topshiriqlarning namunaviy xususiyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: TALIS, o‘qituvchilik malakasi, topshiriq, baholash, xalqaro tadqiqot, pedagogik kompetensiya, ta’lim sifatini oshirish.

Kirish. Bugungi kunda ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha har bir davlat o‘zining milliy strategiyasini ishlab chiqayotgan bo‘lsa-da, xalqaro tadqiqotlar va baholash tizimlarining roli tobora ortib bormoqda. Shular qatorida, OECD tomonidan tashkil etilgan TALIS (Teaching and Learning International Survey) tadqiqoti alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqot o‘qituvchilarning kasbiy faolligi, dars berish metodlari, o‘quvchilar bilan muloqoti, baholash madaniyati kabi ko‘plab yo‘nalishlarni qamrab oladi. Ushbu tadqiqot 6 yilda o‘tkaziladi.

O‘zbekiston 2018-yilda birinchi marta TALIS tadqiqotida ishtirok etdi. Bu ishtirok nafaqat xalqaro baholash tizimida o‘z o‘rnini aniqlash, balki ichki ta’lim tizimidagi muammo va ustuvor yo‘nalishlarni belgilash imkonini berdi. Xuddi shu yili TALIS xalqaro baholash tadqiqotlarida 48 ta davlat qatnashgan bo‘lib, natijalari 2020yl iyun oyida e’lon qilingan.

O‘zbekistonda o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi doirasida bu topshiriqlarning mazmuni, shakli va samaradorligini o‘rganish dolzarb masala hisoblanadi. Ayniqsa, ta’lim sifatiga bevosita ta’sir qiluvchi omil sifatida o‘qituvchining o‘z faoliyatini tahlil qilishi, baholashi va takomillashtirishi juda muhim.

Umuman olganda, TALIS tadqiqotlarini mamlakatimizda o‘tkazish bo‘yicha bir necha yillardan buyon hamkorlik qilib kelmoqdamiz. Shunday ekan biz uchun bu tizim begona emas. Xususan, so‘nggi yillarda umumta’lim maktablari milliy reytingini aniqlashda ham mazkur tizimga moslashtirilgan so‘rovnomalardan muntazam tarzda foydalanib kelyapmiz. Bu orqali qator yutuq va kamchiliklarimizni mamlakat miqyosida aniqlab kelmoqdamiz.

Ushbu tadqiqotning xalqaro miqyosda o‘tkazilishi esa mamlakatimizdagi ta’lim tizimini obyektiv baholab, muammo va kamchiliklarimizni boshqa mamlakatlar bilan solishtirishimizga va kelgusidagi rejalarimizni yana-da aniqroq belgilab olishimizga xizmat qiladi.

"TALIS tadqiqoti o‘qituvchilar va maktab direktorlari o‘rtasida olinadigan so‘rovnomalardan orqali ta’lim muassasasidagi boshqaruv muhiti baholanadi.

Unda tasodifiylik asosida tanlab olinadigan o‘rtacha 200 ta ta’lim muassasasi, 4000 nafar o‘qituvchi va 200 nafar maktab direktori qatnashishi ko‘zda tutilgan. Xalqaro tadqiqotlar natijalarining o‘zaro integratsiyasini ta’minlash va olinadigan tahlillarning qamrovini kengaytirish maqsadida PISA tadqiqoti o‘tkaziladigan maktablar bilan bog‘liq holda amalga oshirish imkoniyatlari ham mavjud. Tadqiqotning maqsadi ta’lim muassasalaridagi ahvolni, o‘qituvchilarning faoliyatidagi muammolarni tizimli tahlil qilib, natijalarni individual tarzda emas, balki reprezentativlik tamoyili asosida davlatlar va xalqaro miqyosda solishtirma tahlillar olib boriladi.

Shuningdek, 2024-yildagi tadqiqotlarda OECD tomonidan faqatgina maktab o‘qituvchi va direktorlari emas, balki uning qamrov darajasini maktabgacha va oliy ta’lim tizimiga ham ta’minlash imkoniyatlari yaratilgan. Bundan tashqari, o‘qituvchilarning pedagogik salohiyatini ham baholash modullari tanlov asosida kiritilganligi tadqiqotning yangi davriyligidagi o‘ziga xosliklarda biridir, lekin bu ishtirokchi davlatlarning tanloviga bog‘liq" — deyiladi OECD vakilining taqdimotida.

Inspeksiya va OECD o‘rtasida bo‘lib o‘tgan navbatdagi uchrashuv tadqiqotda ishtirok etish yo‘nalishlari va modellari borasida olib borilgan muhokamalarning mantiqiy davomi bo‘lib, tomonlar o‘rtasidagi shartnoma loyihasini ishlab chiqish bo‘yicha kelishuvga erishildi.

Shuningdek, muhokamalar yakuniga ko‘ra, ko‘tarilgan masalalar bo‘yicha amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan hamkorlik muntazam davom ettiriladi.

Ma’lumot uchun, Shanxayda TALIS-2013 natijalariga ko‘ra o‘qituvchilar oylik maoshi 10 foizga oshirilgan. Avstraliyada o‘qituvchilarni oliy ta’limdan keyingi

tayyorgarligi bo'yicha yangi dasturlar joriy etilgan, professional standartlar yangilangan. Italiyada “Yaxshi maktab” loyihasi doirasida o'qituvchilar malakasini oshirish uchun qo'shimcha mablag' ajratilib, o'qituvchilarga haq to'lash tizimiga o'zgartirish

TALIS tadqiqotining maqsadi — ishtirokchi mamlakatlarga samarali o'qitish va o'rganish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan ta'lim siyosatini ishlab chiqishda yangi ustuvor yo'nalishlarni ko'rib chiqish va aniqlash.

Metodologiyada tadqiqot metodikasi quyidagi asosiy bosqichlarga tayanadi. Tadqiqot usullarini ko'rib o'tamiz.

- Kontent-tahlil: TALIS topshiriqlaridagi muammoli vaziyatlar, o'qituvchi roli, baholash mezonlari tahlil qilindi.

- Sifatli tadqiqot (case-study): O'zbekistonning bir necha umumta'lim maktablarida foydalanilgan topshiriqlar asosida o'rganildi.

- Ekspert suhbatlari: Ta'lim muassasalari metodistlari bilan suhbatalar orqali amaliy mulohazalar olindi.

Manba bazasilari quydagicha tartibda bo'ladi.

- O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan e'lon qilingan hisobotlar;

- TALIS 2018 xalqaro hisobotlari (OECD);

- Mahalliy pedagogik jurnallar: “Ta'lim muammolari”, “Yangi pedagogika”, “Pedagogik innovatsiyalar”.

O'rganilgan topshiriqlar haqida qisqacha aytib o'tamiz.

- O'qituvchining sinfdagi muammoli vaziyatga munosabati;

- Baholash usullarini tanlash;

- O'qituvchining qobiliyatini rivojlantirish strategiyalari.

Natijalar. TALIS topshiriqlarining asosiy yo'nalishlari tahlil qilingan topshiriqlarda quyidagi asosiy komponentlar mavjud:

- Analitik fikrlash: Har bir topshiriq o'qituvchidan sinfdagi real vaziyatni tahlil qilish, muammo ildizini aniqlash va yechim taklif qilishni talab qiladi.

- Baholash malakasi: O'qituvchining o'qituvchini formatif va summativ usullar bilan qanday baholashiga e'tibor qaratilgan.

- Metodik yondashuv: O'qituvchi darsda qo'llashi mumkin bo'lgan metodlar va ularning samaradorligini asoslab berishi kerak.

O'zbekistonlik o'qituvchilarning yondashuvi

- O'qituvchilarning ko'pchiligi muammoli vaziyatlarni aniqlashda yaxshi ko'rsatkichlarga ega;

- Ammo metod tanlash va baholash mezonlarini asoslashda muayyan qiyinchiliklar mavjud (Karimov, 2021);

- Ustozlar amaliy masalalarga ko'proq tayangan holda ishlashga moyil.

Munozara. TALIS topshiriqlari nafaqat o‘qituvchining hozirgi malaka darajasini baholaydi, balki uning rivojlanish ehtiyojlarini ham aniqlashga xizmat qiladi. O‘zbekistonda bu topshiriqlarni joriy qilish quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- Kasbiy rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash;
- Ta’lim standartlarini xalqaro darajaga moslashtirish;
- Ilmiy-pedagogik faoliyatga yo‘naltirish.

Biroq, ayrim muammolar mavjud:

- Mahalliy sharoitda xalqaro topshiriqlarning to‘liq moslashmasligi;
- O‘qituvchilarning axborot va kommunikatsion texnologiyalarga tayangan holda fikr yurita olmasligi
- Baholash mezonlarining yetarli tushuntirilmaganligi (To‘xtayev, 2023)

Xulosa va tavsiyalar. O‘zbekistonda TALIS topshiriqlarini tatbiq etish ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish uchun katta imkoniyat yaratadi. Ushbu topshiriqlar orqali:

- O‘qituvchilarning tanqidiy va reflektiv fikrlash ko‘nikmalari rivojlanadi;
- Ular o‘z kasbiy faoliyatini baholay oladi va rivojlanish strategiyasini tuzadi;
- O‘qituvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan metodlar ishlab chiqiladi.

Tavsiyalar: TALIS topshiriqlarini milliy metodik qo‘llanmalarga kiritish. O‘qituvchilarni xalqaro baholash tizimi asosida muntazam tayyorlash. Pedagogik oliygohlarda TALIS asosida kurslar tashkil etish. Maxsus seminar va amaliy mashg‘ulotlar orqali topshiriqlarni to‘g‘ri tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva N. (2020). TALIS tadqiqoti va O‘zbekistonda uning amaliy natijalari. “Ta’lim muammolari” jurnali, №3.
2. Karimov Sh. (2021). Xalqaro ta’lim tadqiqotlari va O‘zbekiston ta’lim tizimi. “Pedagogik innovatsiyalar”, №2.
3. To‘xtayev M. (2023). TALIS topshiriqlarining milliy ta’limga moslashtirilishi. “Yangi pedagogika”, №1.
4. OECD. (2019). TALIS 2018 Results: Teachers and School Leaders as Lifelong Learners. OECD Publishing.
5. XTV (2021). O‘zbekiston Respublikasining xalqaro tadqiqotlarda ishtiroki bo‘yicha hisobot. Toshkent: XTV Matbuot xizmati.
6. Zaxiriddinova Shaxlo Zahiriddin qizi, Baxromovna, Norova Dilobar. "CHIZMA GEOMETRIYASI. MARKAZIY VA PARALLEL PROYEKSIYALAR VA ULARNING XOSSALARI." IMRAS 8.3 (2025): 91-95.
7. Zaxiriddinova Shaxlo Zahiriddin qizi, Baxromovna, Norova Dilobar. "YEVKLIDNING “NEGIZLAR ASARI”. NOEVKLIDIY

- GEOMETRIYANING VUJUDGA KELISHI. NI LOBACHEVSKIY VA LOBACHEVSKIY AKSIOMASIDAN KELIB CHIQADIGAN HULOSA." AMERICAN JOURNAL OF APPLIED MEDICAL SCIENCE3.2 (2025): 181-185.
8. Zaxiriddinova Shaxlo Zahiriddin qizi. “SKALYAR ARGUMENTLI VECTOR FUNKSIYA. VEKTOR FUNKSIYANING HOSILASI.” EDUCATION SCIENCE AND INNOVATIVE IDEAS IN THE WORD1.2. (2025): 69-71.
 9. Z. Tuychiyev, Sh. Zaxiriddinov, “DIFFERENSAL TENGLAMANI ANALITIK VA UMUMIY YECHIMI”, “TABIIY FANLARNI FUNDAMENTAL VA AMALIY MUAMMOLARI"
 10. DilobarXoshimova, Dilobar Norova. “TRIGONOMETRIYANI VUJUDGA KELISHI, RIVOJLANISHI VA TRIGONOMETRIK IFODALARNI HISOBLASH”. “XALQ TA’LIMI” ilmiy – metodik jurnali 6. (2024): 51-56.
 11. Turayev Ziyavutdin O‘ktamxonovich, Norova Dilobar.Baxromovna. “OCHIQ DARSNI O‘TKAZISH TAFSILOTLARI VA MATEMATIKA FANIDA OCHIQ DARS O‘TISH METODLARI.” International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers. 13. 2. (2025): 428-432.
 12. Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li, Norova Dilobar Bahromovna. “AXBOROTLASHGAN JAMIYATNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI, AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA INSONNING TUTGAN O‘RNI.” YANGI O‘ZBEKISTON ILMIY TADQIQOTLAR JURNAL. 1.2. (2024): 16-19.
 13. Xoliqulovna, Normurodova Sadoqat, and Norova Dilobar Baxromovna. "APP GYVER PLATFORMA IMKONIYATLARINI O‘RGANISH." Modern education and development 17 (2025): 152-159.
 14. Norova Dilobar Bakhromovna. “PROBLEMS OF TEACHING AND EDUCATING CHILDREN WITH DISABILITIES IN INCLUSIVE EDUCATION.” EDUCATION SCIENCE AND INNOVATIVE IDEAS IN THE WORLD.2.1 (2025): 306-310.
 15. Sardor Ziyadullaev, Dilobar Norova. “THE COMPLEX NUMBERS AND OPERATIONS ON THEM.” TRANSFORMING EDUCATION THROUGH SCIENTIFIC DISCOVERY. 1.1 (2025):